

# FRANSUZ TILIDA SONLARNING ISHLATILISHI VA ULARNING TASNIFI

**Najmiddinova Shahinabonu Nutfullo qizi**  
**Xallilayeva Nargiza Ravshanbek qizi**  
**O‘ZDJTU fransuz filologiyasi 1-kurs talabalari**

**Annotatsiya:** Maqolada fransuz sonlarini o‘rganish jarayonida uning shakllanishi, grammatikasi morfologiyasi, leksikologiyasi va fanetikasi haqida so‘z boradi.

**Kalit so‘zlar:** sanoq son, tartib son, ot

Hozirgi kunda dunyoda 3000 dan ortiq til mavjud bo‘lsa, har bir tilning mana shuncha o‘ziga xos nafaqat leksikasi, balki grammatikasi ham mavjud. Ularda farqli va o‘xshash jihatlar yetarlicha. Farqlari:grammatika, leksika, fonetika, orfoepiya tomonlama bo‘lsa, o‘xshash tomoni:morfologiyasi va orfografiyasidadir. Jumladan o‘zbek va fransuz tilidagi birgina son so‘z turkumini olib qaraydigan bo‘lsak, ularning o‘ziga xosligining guvohi bo‘lamiz.

Asosiy qism:

Fransuz tilida so‘zlar o‘zlarining bildiradigan ma'nolariga ko‘ra 2 turga bo‘linadi :

1. Les adjectifs numéraux cordinaux (sanoq sonlar)
2. Les adjectifs numéraux ordinaux (tartib sonlar)
- I. Les adjectifs numéraux cordinaux.

Sanoq sonlar combien? (necha ? Nechta ?) so‘rog‘iga javob bo‘lib keladi :un, deux, trois, dix).

Ular sifatlar va boshqa barcha determinativlar kabi otni aniqlab keladi. Ot oldida sanoq son kelsa, artikl ishlatilmaydi.

Les amis- deux amis.

Bir necha predmet yoki kimsalar jami haqida gap borganda sanoq son oldida artikl qoʻllanadi:

Toutes les trois sœurs sont élevées (Uchala opa - singil ham oʻquvchi).

Fransuz tilida sanoq sonlar odatda oʻzgarmaydi.

Ammo quyidagi sanoq sonlar bundan mustasno :

1. Un (bir) sonning "une" formasi boʻlib u j.r dagi otlar oldida qoʻqoqoʻllanadi.

Un cahier-bitta daftari

Une pomme - bitta olma

2. Cent(yuz), vingt (yigirma) sanoq sonlari otlar otlar oldida kelib, ulardan keyin boshqa biror son qoʻllanmasa, ular oxirida "s" harfi qoʻshib yoyoziladi.

Quatre vingts kilos de blés (89 kg bugʻdoy)

3. Mille sonining mil formasi mavjud. Bu forma sanani ifodalashda qoʻllaniladi:

4. Nous sommes en mil neuf cent soixante dix huit (Biz 191978-yildamiz.

Fransuz sonlarida vaqt ifodalovchi iboralar ham mavjud :

Il est une heure- Soat 1

Il est deux heures- Soat 2

Il est midi- Kunduz soat 12

Il est minuit-Tungi soat 12

Il est midi est quart-Soat 12 dan 15 daqiqa oʻtdi.

Sanoq sonning gapdagi vazifasi :

1. Ega(susujet)

Six et quatre font dix (6+4=10)

2. Ot kesim (attribut)

Nous sommes trente dans la classe (biz sinfda oʻttiztamiz)

3. Toʻldiruvchi (complètement d'objet)

J'ai reçu un cinq (Men besh oldim)

## II. Tartib son (Les adjectifs numéraux ordinaux)

Tartib son predmetlarning tartibini bildirib le quel(nechanchi ?) so'rog'iga javob bo'lib keladi.

Sanoq sonlar oxiriga ième qo'shimchasini qo'shish orqali tartib son yasaladi.

Deux-deuxième trois-troisième.

Tartib sonlar otni aniqlab kelganda, aniq artikl bilan qo'llanadi.

Le premier élève c'est Sultan ( Birinchi o'quvchi bu Sulton).

"e" harfi bilan tugagan sanoq sonlardan tartib son yasalganda so'z oxiridagi " e" harfi tushirib qoldiriladi: quatre - quatrièm ; onze-onzième

Un, deux sonlaridan yasalgan tartib son ikki xil formaga ega : un-unième ; premier(e).

Unième formasi faqat sanoq son bilan birga keladi:

Vingt-et - unième (yigirma birinchi)

Trente et unième (o'ttiz birinchi)

Première - tartib soni o'zi aniqlab kelayotgan so'z bilan rod va sonda moslashadi :

Notre première leçon commencera à neuf heures. (Bizning birinchi darsimiz to'qqizda boshlanadi).

Deux-deuxième, second(e)

Second formasi faqat ikkita narsani taqqoslagandagina ishlatiladi, qolgan hollarda deuxième formasi ishlatiladi :

Cinq va neuf sonlarining tartib son formasi ozgina farqli:

Cinquième ;neuvième.

Tartib sonning gapdagi vazifasi :

### 1. Ega (sujet)

Le premier de la classe est Karim (Sinfning birinchisi Karim)

2. Ot kesim (attribut)

Il est le premier dans notre classe ( U sinfimida birinchidir)

3. To'ldiruvchi (complètement d'objet)

Je prendrai le premier ( Men birinchisini oldim)

4. Aniqlovchi (complètement attributif)

J'ai appris par cœur la troisième leçon ( Men uchunchi darsni yodlaganman)

Xulosa :

Bir soʻz bilan aytganda fransuz tili va oʻzbek tili grammatikasini chuqur oʻrganish jarayonida shuni koʻrishimiz mumkinki, albatta soʻz turkumarining kelib chiqishi, shakllanishi, orfografiya, orfoepiya, leksikasida farqli jihatlar katta boʻlishi mumkin, ammo yuqorida koʻrib oʻtganimizdek oʻxshash jihatlari ham mavjud. Tillar orasidagi oʻxshash va farqli tomonlarini solishtirib oʻrganish jarayonida til oʻrganuvchi oʻzini ustida ishlab yaxshi natijaga erishadi hamda bu qiyoslangan tillarni murakkab darajada oʻrganishga yordam beradi shubhasiz. Shunday ekan til oʻrganishni uni grammatikasini chuqur oʻrganishdan boshlash lozim.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. На французском и узбекском языках Л.Е.Малина,Л.П. Андрейчикова, У.Турниёзов Грамматика французского языка , Ташкент 1978
2. Jean de Bois, agrégé de grammaire, docteur ès lettre et René Lagane , agrégé de grammaire 21, rue de Montparnasse 75283 Paris Cedex 06